



## TALABALAR VOKAL IJROCHILIGI KO'NIKMALARINI INNOVATSION METODLAR ORQALI O'QITISH

**Bannaqulov Mexroj Furqat o'g'li**

Samarqand Davlat pedagogika instituti musiqa  
ta'limi kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15500859>

### **Annotatsiya**

Ushbu maqola zamonaviy oliy ta'lim muassasalarida talabalarning vokal ijrochiligi ko'nikmalarini rivojlantirishda innovatsion metodlar va texnologiyalardan foydalanish masalalariga bag'ishlangan. Tadqiqotda an'anaviy vokal ta'limi usullari bilan birga, raqamli texnologiyalar, interaktiv o'qitish vositalari, multimedia tizimlar, sun'iy intellekt dasturlari va individual yondashuvni birlashtiruvchi kompleks metodika taklif etilgan.

**Kalit so'zlar:** vokal ijrochiligi, innovatsion metodlar, raqamli texnologiyalar, ta'lim metodikasi, talabalar, musiqa ta'limi

Zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanishi va globallashuv jarayonlari musiqa ta'limi sohasida ham tubdan o'zgarishlarni talab etmoqda. XXI asrning ilk choragida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, sun'iy intellekt dasturlarining paydo bo'lishi va multimedia vositalarining keng tarqalishi vokal ta'limi metodikasiga yangicha yondashuvni zarur qilmoqda. Ayniqsa, vokal ijrochiligi ko'nikmalarini o'rgatishda an'anaviy usullar bilan birga innovatsion metodlardan foydalanish zarurati paydo bo'lgan.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ga muvofiq, oliy ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish, talabalarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni mustaqil ijodiy faoliyatga tayyorlash ustuvor vazifalar qatoriga kiradi. Shu munosabat bilan vokal ta'limida ham innovatsion yondashuvlar joriy etilishi dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

### **Adabiyotlar tahlili**

Vokal ta'limi sohasidagi ilmiy tadqiqotlar tarixini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu sohada fundamental asoslar XIX-XX asrlarda yaratilgan. M.I. Glinka, A.G. Rubinshteyn, P.I. Chaykovskiy kabi buyuk kompozitorlar vokal ta'limining nazariy asoslarini yaratgan bo'lib, ularning g'oyalari hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Rus vokal maktabining asoschisi hisoblanuvchi M.I. Glinka "Vokal mashqlari" asarida nafas olish texnikasi, ovoz qo'yish metodikasi va pedagogik printsiplarni batafsil bayon etgan. Uning fikriga ko'ra, vokal ta'limining asosi - bu tabiiqlikni saqlagan holda texnik mukammallikka erishishdir.





Mashhur o'zbek vokal pedagoglari T. Jalilov, H. Nazarov, M. Yusupova kabilar milliy vokal an'analarini zamonaviy metodlar bilan birlashtirish, o'zbek tilining fonetik xususiyatlarini hisobga olgan holda vokal texnikasini o'rgatish masalalarini o'rganishgan. Ularning ishlari o'zbek vokal pedagogikasining nazariy va amaliy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Rossiyalik tadqiqotchi P.S. Ivanov (2020) "Innovatsionnye metody v vokal'nom obrazovanii" monografiyasida vokal ta'limidagi innovatsion metodlarni tasniflab, ularning qo'llanilish sohalarini aniqlagan. Uning fikricha, innovatsion metodlar an'anaviy usullarni to'liq almashtirishi mumkin emas, balki ularni boyitish va samaradorligini oshirish vazifasini bajaradi.

### **Metodologiya**

Zamonaviy vokal ta'limida kompyuter dasturlari va mobil ilovalar muhim o'rin tutadi. Turli shakildagi tunetlar orqali ovoz tonini aniq baholash, ritm va melodik xatolarni aniqlash mumkin. Virtual pianino va metronom dasturlari talabalarning mustaqil mashq qilishini osonlashtiradi. Video darslar, interaktiv prezentatsiyalar va audio yozuvlar talabalarning vizual va eshitish xotirasini faollashtiradi. 3D animatsiya orqali ovoz apparatining ishlash printsiplarini ko'rsatish mumkin, bu esa nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalarga aylantirish jarayonini tezlashtiradi. Zamonaviy sensorlar yordamida nafas chuqurligini va ritmin o'lchash mumkin. Jismoniy mashqlar orqali bajarilgan usullar talabalarning nafas nazoratini yaxshilashga yordam beradi. Maxsus ilovalar orqali nafas mashqlarini kuzatib borish va tahlil qilish imkoniyati mavjud.

### **Natija va tahlil**

O'zbekiston vokal ta'limi tizimining zamonaviylashtirish yo'lida muhim qadam hisoblanadi. Innovatsion metodlarning samaradorligi ilmiy jihatdan isbotlandi va amaliy qo'llanilishi uchun aniq yo'riqnomalar ishlab chiqildi. Biroq, bu faqat boshlanish. Vokal ta'limini yanada rivojlantirish uchun doimiy tadqiqot va innovatsiya zarur.

Vokal ta'limining an'anaviy metodikasi asosan o'qituvchi va talaba o'rtasidagi bevosita muloqotga asoslangan bo'lib, bu usul o'zining afzalliklari bilan birga bir qator cheklovlarga ham ega. Jumladan, o'qituvchining subyektiv bahosi, individual yondashuvning yetishmasligi, o'quv jarayonining vizualizatsiya qilinmasligi, talabalarning o'z-o'zini nazorat qilish imkoniyatlarining cheklanganligi kabi muammolar mavjud.

Vokal ijrochiligi - bu nafaqat ovoz chiqarish texnikasi, balki ijodiy ifoda, his-tuyg'ularni yetkazish, badiiy tasvirni yaratish va tinglovchi bilan hissiy aloqa o'rnatish san'atidir. Bu murakkab jarayon bir necha komponentlarni o'z ichiga





oladi: fiziologik jihatlar (nafas olish texnikasi, ovoz muskullari koordinatsiyasi), psixologik omillar (sahna qo'rquvi, o'ziga ishonch, emotsional nazorat), ijodiy elementlar (interpretatsiya, stilistik xususiyatlar, individual uslub) va kommunikativ ko'nikmalar (auditoriya bilan aloqa, sahna madaniyati).

Innovatsion texnologiyalari yordamida talabalar turli konsert zallari va sahna muhitlarini virtual tarzda his qilishlari mumkin. Bu sahna qo'rquvini engish va ijro tajribasini boyitish uchun foydali. Qo'shilgan haqiqat orqali esa ovoz traktining 3D modellari va nafas olish texnikalarini vizualizatsiya qilish imkoniyati yaratiladi. Bundan tashqari innovatsion metodlar nafaqat texnik jihatlarni, balki psixologik tayyorgarlikni ham o'z ichiga oladi. Doimiy bajarib boriladigan mashqlar orqali talabalarning o'ziga ishonchini oshirish va ijodiy potentsialini ochish mumkin. Ushbu yondashuvlar orqali talabalar o'z ovozlari tahlil qilish, tembr va intonatsiyani nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

### **Xulosa**

XXI asr raqamli asrdir va bu asr O'zbekistonda ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Vokal ta'limi ham ushbu o'zgarishlardan chetda qola olmaydi. Shuning uchun bugungi kun talablariga javob beradigan, zamonaviy texnologiyalardan to'liq foydalanuvchi, lekin milliy an'analarni unutmaydigan yangi vokal ta'limi tizimini yaratish vaqt taqozosi.

Ushbu sohada olib borgan izlanishlarimiz shuni ko'rsatdiki, innovatsion metodlar an'anaviy usullarni yo'q qilmaydi, balki ularni boyitadi va yangi imkoniyatlar yaratadi. Bu esa O'zbek vokal maktabining boy an'analari saqlab qolish bilan birga, uni yangi bosqichga ko'tarish imkoniyatini beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Jalilov, T. (2019). O'zbek vokal maktabi: an'ana va zamoniylik. Toshkent: Yangi asr avlodi, 287 bet.
2. Nazarov, H. (2020). "Milliy vokal uslubining pedagogik asoslari". O'zbekiston san'ati, 2(8), 12-18.
3. Qodirov, A. (2022). "Zamonaviy vokal ta'limida texnologiyalarning o'rni". Musiqa va san'at, 4(12), 34-42.
4. Karimova, N. (2023). "Vokal ta'limida multimedia vositalardan foydalanish". Innovatsion ta'lim, 1(5), 67-73.

